

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARINING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

**Mo'minbekova S.E**

*magistrant,*

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti*

**Riskulova Kamola DJumayevna**

*DSc, dotsent,*

*Toshkent shahridagi Puchon universiteti*

**Annotatsiya:** *Mazkur ilmiy maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim tizimida rahbarlarning normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, ularni amaliy faoliyatda qo'llash mexanizmlari, boshqaruv jarayonlarida huquqiy madaniyatning o'рни ochib beriladi. Shuningdek, rahbarlarning huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy o'qitish usullari, malaka oshirish tizimi va raqamli ta'lim imkoniyatlarining ahamiyati asoslab beriladi.*

*Bundan tashqari, tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida uchraydigan huquqiy xatoliklar, ularning sabab va oqibatlari, rahbarlar faoliyatida huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etishning innovatsion yo'llari yoritiladi. Mavjud qonunchilik talablari asosida rahbarlarning kasbiy mas'uliyatini kuchaytirish, ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishda huquqiy yondashuvni shakllantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruv samaradorligini oshirish, rahbarlarning huquqiy madaniyatini mustahkamlash va ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.*

**Kalit so'zlar:** *maktabgacha ta'lim, rahbar, huquqiy savodxonlik, normativ-huquqiy hujjatlar, boshqaruv, huquqiy madaniyat, kompetensiya, malaka oshirish.*

### KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish, bolalar huquqlarini himoya qilish, pedagog xodimlar va ota-onalar bilan munosabatlarni huquqiy asosda yo'lga qo'yish rahbarlardan yuqori darajadagi huquqiy savodxonlikni talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari nafaqat pedagogik, balki ma'muriy-boshqaruv faoliyatini ham olib boruvchi shaxs sifatida turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlaydi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, maktabgacha ta'lim sohasiga oid qarorlar, sanitariya qoidalari, mehnat qonunchiligi va boshqa hujjatlarni bilishi hamda ularni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llashi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari zamonaviy sharoitda faqat pedagogik jarayonni boshqaruvchi emas, balki keng ko'lamli ma'muriy, tashkiliy, psixologik va huquqiy masalalar

bo'yicha qaror qabul qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa undan davlat siyosati yo'nalishlari, soha rivojiga oid normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro talablarga mos boshqaruv kompetentsiyalarini chuqur o'zlashtirishni taqozo etadi. Rahbar o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, Prezident farmonlari va qarorlari, hukumat qarorlari, mehnat qonunchiligi, sanitariya qoidalari, pedagogik etikaga oid me'yorlar hamda boshqa bir qator tartib-taomillarni bilishi va ularga tayanib ishlashi zarur. Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lgani uchun rahbarning huquqiy savodxonligi ta'lim tashkilotining har bir faoliyat yo'nalishida muhim o'rin tutadi. Xususan, bolalarning xavfsizligi va sog'lig'ini saqlash, ta'lim dasturlarini sifatli amalga oshirish, pedagoglarning mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etish, moliyaviy- xo'jalik jarayonlarini qonuniy asosda yuritish, ota-onalar bilan huquqiy munosabatlarni shakllantirish, shuningdek, nizoli vaziyatlarni tartibga solishda rahbarning huquqiy kompetentsiyasi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining huquqiy savodxonligi tushunchasi va mazmuni

Huquqiy savodxonlik – bu shaxsning huquqiy bilimlar majmuasi, huquqiy normalarni tushunish, talqin etish va amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari uchun huquqiy savodxonlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- normativ-huquqiy hujjatlarni bilish;
- huquq va majburiyatlarni anglash;
- boshqaruv faoliyatida qonun ustuvorligini ta'minlash;
- nizolarni huquqiy asosda hal qilish.

Rahbarning huquqiy savodxonligi uning professional kompetentligining muhim tarkibiy qismi bo'lib, tashkilotda sog'lom huquqiy muhitni shakllantirish, jamoada adolat va ochiqlik tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Rahbarning huquqiy savodxonligi nafaqat mavjud qonunchilik hujjatlarini bilish, balki ularni real boshqaruv vaziyatlariga moslashtirib qo'llay olishni ham nazarda tutadi. Amaliy faoliyatda bu jarayon ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, u rahbarning huquqiy tafakkuri, mas'uliyat hissi va etik-huquqiy pozitsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Huquqiy tafakkur – rahbarning huquqiy hodisalarga obyektiv yondashuvi, normativ talablarni to'g'ri anglab yetishi va huquqiy qarorlar qabul qilishda adolat tamoyillariga amal qilishi bilan tavsiflanadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarida bunday tafakkur shakllangan bo'lsa, u o'z faoliyatida subyektivlikka yo'l qo'ymaydi, qarorlar qabul qilishda qonuniylik va oshkoralikni ustuvor deb biladi. Shuningdek, huquqiy savodxonlik rahbarning hujjatchilik faoliyatida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Buyruqlar chiqarish, xizmat yozishmalari, shartnomalar tuzish, mehnat bitimlarini rasmiylashtirish jarayonlarining barchasi huquqiy me'yorlarga muvofiq bo'lishi lozim. Aks holda hujjatlarning yuridik kuchi zaiflashadi va turli nizoli holatlar kelib chiqishi ehtimoli ortadi.

Rahbarlarning huquqiy savodxonligini oshirish zaruriyati (muammo va dolzarblik)

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarida huquqiy bilimlar yetarli darajada shakllanmagan. Bu holat noto'g'ri hujjatlashtirish, mehnat munosabatlarida xatolar, ota-onalar bilan kelishmovchiliklar va nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Huquqiy savodxonlikni oshirish zarurati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

ta'lim sohasida islohotlarning jadallashuvi;

normativ-huquqiy bazaning tez-tez yangilanib borilishi;

rahbar zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatning oshishi;

bolalar huquqlari va manfaatlarini himoya qilish zarurati.

Amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ayrim rahbarlar normativ-huquqiy hujjatlarni yuzaki biladi yoki ularning mazmunini to'liq anglab yetmaydi. Natijada buyruq va farmoyishlarning noto'g'ri rasmiylashtirilishi, mehnat shartnomalarining qonunchilik talablariga mos kelmasligi, ichki mehnat tartibi qoidalarining yetarli darajada ishlab chiqilmasligi kabi holatlar uchrab turadi. Bunday kamchiliklar esa mehnat nizolari, kadrlar almashinuvi va jamoada ijtimoiy-psixologik muhitning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Muammoning dolzarbligi yana shundan iboratki, maktabgacha yoshdagi bolalar huquqlarini ta'minlash masalasi zamonaviy jamiyatda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bola manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish tamoyili bevosita rahbarning huquqiy savodxonligiga bog'liq. Agar rahbar bolalar huquqlariga oid milliy va xalqaro huquqiy me'yorlarni chuqur bilsa, ta'lim-tarbiya jarayonida ularning amaliy ta'minoti ham yuqori darajada bo'ladi.

Shu bilan birga, ta'lim tizimida raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi ham rahbarlarning huquqiy savodxonligini oshirishni zarur etmoqda. Axborot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, elektron hujjat aylanishi kabi masalalar bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lmagan rahbarlar faoliyatida qonunbuzarliklar xavfi ortadi. Bu esa nafaqat tashkilot, balki jamiyat miqyosida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, huquqiy savodxonlik yetarli darajada shakllanmagan rahbarlar odatda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda subyektiv yondashuvga yo'l qo'yadi, hujjatlarni rasmiylashtirishda standartlardan chetga chiqadi va jamoa bilan munosabatlarda nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etishda qiynaladi. Bu holat esa ta'lim muassasasi faoliyatining umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy savodxonlikni oshirish mexanizmlari

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Malaka oshirish kurslari va seminar-treninglar

Rahbarlar uchun maxsus tashkil etilgan malaka oshirish kurslarida ta'lim qonunchiligi, mehnat huquqi, ma'muriy va fuqarolik huquqi asoslari bo'yicha modullar kiritilishi muhim ahamiyatga ega. Seminar-treninglar nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar, keys-stadilar, huquqiy vaziyatlarni modellashtirish orqali olib borilishi lozim.

Ichki institutsional o'qitish tizimini yo'lga qo'yish

Har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida huquqiy savodxonlikka bag'ishlangan ichki o'quv mashg'ulotlari, "huquqiy burchaklar", metodik qo'llanmalar va elektron resurslar tashkil etilishi kerak. Ichki trenerlar orqali jamoa a'zolari bilan huquqiy mavzularda davra suhbatlari o'tkazish samarali usul hisoblanadi.

Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanish

So'nggi yillarda masofaviy ta'lim imkoniyatlarining kengayishi rahbarlarning huquqiy savodxonligini oshirishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Onlayn kurslar, vebinarlar, elektron kutubxonalar va mobil ilovalar orqali huquqiy bilimlarni mustaqil oshirish kengayib bormoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish murakkab va uzluksiz jarayon bo'lib, u tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun an'anaviy va zamonaviy mexanizmlarni o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Huquqiy savodxonlikni shakllantirishda ilg'or xorijiy tajribalar

Rivojlangan mamlakatlar tajribasida ta'lim muassasalari rahbarlari uchun doimiy huquqiy ta'lim tizimi yo'lga qo'yilgan. Masalan, Yevropa davlatlarida ta'lim menejerlari uchun huquqiy modul majburiy tarzda o'qitiladi. Unda bolalar huquqlarini himoya qilish, inklyuziv ta'lim, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik masalalari alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, Yaponiyada maktabgacha ta'lim rahbarlarining huquqiy bilimlari maxsus attestatsiya orqali baholanadi va ularning lavozim faoliyati mazkur ko'rsatkichlar asosida monitoring qilinadi.

Finlyandiya tajribasida maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlari uchun maxsus "ta'lim huquqi" kurslari mavjud bo'lib, ular orqali rahbarlar bolalar huquqlari, inklyuziya, maxsus ehtiyojli bolalar bilan ishlashda huquqiy mas'uliyat masalalarini chuqur o'rganadilar. Bu tajriba rahbar shaxsida huquqiy mas'uliyat hissining yuqori darajada shakllanishiga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasida esa raqamli huquqiy savodxonlikka katta e'tibor qaratiladi. Bu davlatlarda ta'lim muassasalari rahbarlari uchun ma'lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik va axborot huquqi bo'yicha majburiy treninglar joriy etilgan. Ushbu tajribalar milliy ta'lim tizimimiz uchun ham moslashtirishga arzon asos bo'la oladi. Xalqaro tajribani o'rganish shuni ko'rsatadiki, huquqiy savodxonlik bo'yicha bilimlar faqat bir martalik kurslar orqali emas, balki uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli asosida shakllantirilganda yuqori samara beradi.

Huquqiy savodxonlikni oshirishning pedagogik va ijtimoiy samaradorligi

Rahbarlarning huquqiy savodxonligi oshishi bilan quyidagi ijobiy natijalarga erishiladi:

ta'lim muassasasida qonunbuzarlik holatlari kamayadi;

jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit shakllanadi;

ota-onalar bilan hamkorlik mustahkamlanadi;

bolalar huquqlari va manfaatlari yanada samarali himoya qilinadi.

Bu jarayon ta'lim sifatini oshirishga, muassasaning ijtimoiy nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, huquqiy savodxonlik ta'lim sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chunkim muassasada sog'lom huquqiy muhit mavjud bo'lsa, pedagoglar o'z ijodiy salohiyatini erkin namoyon eta oladi, bolalar uchun xavfsiz va adolatli ta'lim muhiti yaratiladi. Boshqaruv samaradorligi nuqtai nazaridan huquqiy savodxonlik muassasada hujjat aylanishi tizimini takomillashtirish, hisobotdorlik va shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

#### Taklif va tavsiyalar

Maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining huquqiy savodxonligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- huquqiy savodxonlikka oid maxsus o'quv modullarini joriy etish;
- har yili majburiy huquqiy bilimlarni yangilash kurslarini tashkil etish;
- hududiy seminarlarda huquq sohasi mutaxassislarini jalb qilish;
- rahbarlar uchun huquqiy masalalar bo'yicha elektron qo'llanmalar yaratish.

Maktabgacha ta'lim sohasi uchun ixtisoslashtirilgan huquqiy qo'llanmalar yaratish; rahbarlar uchun masofaviy huquqiy ta'lim platformalarini joriy etish; hududiy miqyosda "huquqiy savodxon rahbar" to'garaklarini tashkil etish; huquqiy bilimlarni baholash bo'yicha diagnostik testlar tizimini yo'lga qo'yish. Mazkur takliflar amaliyotga tatbiq etilsa, rahbarlarning huquqiy kompetensiyalari barqaror rivojlanadi.

#### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining huquqiy savodxonligi ta'lim muassasasining samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Huquqiy bilimlarga ega bo'lgan rahbar qonun ustuvorligini ta'minlaydi, bolalar va pedagog xodimlar huquqlarini himoya qiladi, tashkilotda barqaror boshqaruv tizimini shakllantiradi. Shu bois, ushbu yo'nalishda tizimli va uzluksiz ishlarni yo'lga qo'yish dolzarb vazifa hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. Abduqodirov A.A. Ta'limda boshqaruv asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.
5. Ishmuhammedov R.J. Ta'lim menejmenti. – Samarqand, 2019.
6. UNESCO. Early Childhood Education Management Guidelines. – Paris, 2017.
7. OECD. Education Leadership and Legal Literacy. – Paris, 2018.